

Surxondaryo viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim


2025/2026- o'quv yili boshiga

- I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

Surxondaryo viloyatida so'nggi yillarda o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida sezilarli tarkibiy o'zgarishlar kuzatilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, kasbiy ta'lim tashkilotlari turlari maqbullashtirilgan: professional maktablar va kollejlarda texnikumlar, shuningdek, maktabgacha, maktab va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari tashkil etilgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni (tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



2025/2026- o'quv yili boshiga faoliyat yuritayotgan akademik litseylar soni **4 tani** tashkil etgan va so'nggi besh yil davomida o'zgarishsiz qolgan.

Texnikumlar soni esa, aksincha, 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **2,9 barobarga**, yoki **37 taga** oshgan va 2025/2026- o'quv yili boshiga **57 tani** tashkil etgan. Mazkur o'zgarishlar kasbiy ta'lim tashkilotlari turlarining maqbullashtirilganligi bilan bog'liq bo'lib, buning natijasida ilgari o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining umumiy sonida hisobga olingan professional maktablar va kollejlarda texnikumlar hamda boshqa ta'lim tashkilotlariga aylantirilgan.

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

**Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
sonining tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi**
(2025/2026- o'quv yili boshiga, birlik)

	Akademik litseylar		Texnikumlar	
	Jami	umumiy soniga nisbatan % da	Jami	umumiy soniga nisbatan % da
Surxondaryo viloyati	4	100	57	100
Termiz sh	2	50,0	9	15,9
<i>tumanlar:</i>				
Oltinsoy	-	-	3	5,3
Angor	-	-	4	7,0
Bandixon	-	-	3	5,3
Boysun	-	-	3	5,3
Muzrabot	-	-	2	3,1
Denov	-	-	8	14,1
Jarqo'rg'on	1	25,0	4	7,0
Qumqo'rg'on	-	-	3	5,3
Qiziriq	1	25,0	1	1,8
Sariosiyo	-	-	3	5,3
Termiz	-	-	1	1,8
Uzun	-	-	4	7,0
Sherobod	-	-	4	7,0
Sho'rchi	-	-	5	8,8

Akademik litseylarning ko'p soni Termiz shahrida (**2 ta**) qayd etilgan. Texnikumlar soni bo'yicha esa Termiz shahri (**9 ta**), Denov (**8 ta**) va Sho'rchi (**5 ta**) tumanlarida yetakchilik qilgan.

Akademik litseylarning kam soni Jarqo'rg'on va Qiziriq tumanlarida qayd etilgan bo'lib, **har birida 1 tadan** bo'lgan. Texnikumlarning eng kam soni ham Qiziriq va Termiz (har birida **1 tadan**), Muzrabot (**2 ta**) hamda Oltinsoy, Bandixon, Boysun, Qumqo'rg'on va Sariosiyo (har birida **3 tadan**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari \(jami\)](#)

[Akademik litseylar soni](#)

II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Viloyatda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga o'quvchilarni qabul qilish bo'yicha umumiy o'sish kuzatilgan. 2025/2026- o'quv yili boshiga qabul qilingan o'quvchilar soni 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **4,7 ming nafarga**, yoki **33,3 % ga** oshgan va **18,8 ming nafarni** tashkil etgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni (tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o'quv yili boshiga akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **0,04 ming nafarga**, yoki **6,9 % ga** oshgan va **0,7 ming nafarni** tashkil etgan. Yuqorida qayd etilgan tarkibiy o'zgarishlar munosabati bilan texnikumlarga qabul qilinganlar soni esa oldingi o'quv yiliga nisbatan **5,0 barobarga**, yoki **15,0 ming nafarga** oshgan va **18,1 ming nafarga** yetgan.

Qabul qilingan o'quvchilar sonining tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi (2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Surxondaryo viloyati	0,7	0,3	0,4	18,1	7,8	10,3
Termiz sh	0,4	0,2	0,2	2,0	1,4	0,6
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	-	-	-	0,6	0,1	0,5
Angor	-	-	-	1,2	0,4	0,7
Bandixon	-	-	-	0,9	0,3	0,6
Boysun	-	-	-	0,8	0,3	0,5
Muzrabot	-	-	-	0,7	0,3	0,4
Denov	-	-	-	3,3	1,3	2,0
Jarqo'rg'on	0,2	0,02	0,2	1,3	0,4	0,8
Qumqo'rg'on	-	-	-	1,0	0,2	0,8
Qiziriq	0,04	0,02	0,02	0,3	0,04	0,3
Sariosiyo	-	-	-	1,3	0,6	0,7
Termiz	-	-	-	0,4	0,1	0,3
Uzun	-	-	-	1,0	0,4	0,6
Sherobod	-	-	-	1,5	0,8	0,7
Sho'rchi	-	-	-	1,8	1,0	0,8

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilarning yuqori soni Termiz shahrida (**0,4 ming nafar**) qayd etilgan. Texnikumlarga qabul qilingan o'quvchilarning eng yuqori qismi esa Denov tumani (**3,3 ming nafar**), Termiz shahrida (**2,0 ming nafar**) va Sho'rchi tumanida (**1,8 ming nafar**) kuzatilgan. Akademik litseylarga qabul qilinganlar sonining past ko'rsatkichi Qiziriq (**0,04 ming nafar**) va Jarqo'rg'on (**0,2 ming nafar**) tumanlarida qayd etilgan. Texnikumlarga qabul qilingan o'quvchilar sonining eng past ko'rsatkichlari Qiziriq (**0,3 ming nafar**), Termiz (**0,4 ming nafar**) va Oltinsoy (**0,6 ming nafar**) tumanlarida kuzatilgan.

Termiz shahri va Qiziriq tumanida akademik litseylarga qabul qilingan o'g'il bolalar va qiz bolalar ulushi teng bo'lgan hamda har biri **50,0 % ni** tashkil etgan. Akademik litseylarga qabul qilingan qiz bolalarning past ulushi Jarqo'rg'on tumanida qayd etilgan bo'lib, **12,5 % ni** tashkil etgan. Termiz shahri (**70,4 %**) va Sho'rchi tumanida (**56,0 %**) texnikumlarga qabul qilingan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushidan yuqori bo'lgan. Texnikumlarga qabul qilingan qiz bolalarning eng past ulushi Qiziriq tumanida qayd etilgan va **16,1 % ni** tashkil etgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

Surxondaryo viloyatida so'nggi yillarda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar umumiy sonining o'sishi kuzatilgan. 2025/2026- o'quv yili boshiga ularning soni 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **4,7 ming nafarga**, ya'ni **17,7 % ga** oshgan va **32,6 ming nafarni** tashkil etgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



2025/2026- o'quv yili boshiga akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni **1,2 ming nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **0,1 ming nafarga**, yoki **9,1 % ga** oshgan. 2025/2026- o'quv yili boshiga texnikumlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni **31,3 ming nafarni** tashkil etgan va **25,0 ming nafarga**, yoki **5,0 barobarga** oshgan.

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

Tahsil olayotgan o'quvchilar sonining tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Surxondaryo viloyati	1,3	0,5	0,8	31,3	13,8	17,5
Termiz sh	0,8	0,4	0,4	3,9	2,8	1,1
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	-	-	-	1,3	0,2	1,1
Angor	-	-	-	2,0	0,7	1,3
Bandixon	-	-	-	1,4	0,4	1,0
Boysun	-	-	-	1,3	0,4	0,9
Muzrabot	-	-	-	1,1	0,4	0,7
Denov	-	-	-	5,7	2,7	3,0
Jarqo'rg'on	0,4	0,04	0,3	2,0	0,6	1,4
Qumqo'rg'on				1,6	0,3	1,3
Qiziriq	0,09	0,05	0,04	0,5	0,1	0,4
Sariosiyo	-	-	-	2,4	1,2	1,2
Termiz	-	-	-	0,5	0,2	0,3
Uzun	-	-	-	1,7	0,6	1,1
Sherobod	-	-	-	2,6	1,4	1,2
Sho'rchi	-	-	-	3,3	1,8	1,5

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning yuqori soni Termiz shahrida (**0,8 ming**) qayd etilgan. Texnikumlardagi o'quvchilarning eng yuqori soni esa Denov tumani (**5,7 ming**), Termiz shahrida (**52,4 ming**) va Sho'rchi (**49,0 ming**) tumanida kuzatilgan. Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarning past soni Qiziriq (**0,09 ming**) va Jarqo'rg'on (**0,4 ming**) tumanlarida qayd etilgan. Texnikumlarda eng past ko'rsatkichlar Qiziriq va Termiz (har bir tumanda **0,5 ming nafardan**), Muzrabot (**1,1 ming**) hamda Boysun va Oltinsoy (har bir tumanda **1,3 ming nafardan**) tumanlarida kuzatilgan.

Qiziriq (**54,0 %**) tumanida akademik litseylarda tahsil olayotgan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushidan yuqori bo'lgan. Akademik litseylarda o'qiyotgan qiz bolalarning past ulushi Termiz shahri (**47,8 %**) va Jarqo'rg'on tumanida (**11,5 %**) qayd etilgan.

Texnikumlar bo'yicha esa Termiz shahri (**71,8 %**), Sho'rchi (**54,5 %**) va Sherobod (**53,8 %**) tumanlarida o'qiyotgan qiz bolalar ulushi o'g'il bolalar ulushidan yuqori bo'lgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Oltinsoy (**15,4 %**) va Qumqo'rg'on (**18,8 %**) tumanlarida kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

Surxondaryo viloyatida 2025- yilda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari bitiruvchilari umumiy soni **9,7 ming nafarni** tashkil etgan va 2024- yilga nisbatan **1,4 ming nafarga**, ya'ni **12,6 % ga** qisqargan.

Bitiruvchilar soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



2025- yilda akademik litseylarning bitiruvchilari soni **0,4 ming nafarni** tashkil etgan va 2024- yilga nisbatan **0,1 ming nafarga**, ya'ni **8,0 % ga** qisqargan. Texnikumlarning bitiruvchilari soni esa **9,3 ming nafarni** tashkil etgan va **1,3 ming nafarga**, ya'ni **12,3 % ga** qisqargan.

Bitiruvchilar sonining tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2025- yil uchun, ming kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar	jami	qiz bolalar	o'g'il bolalar
Surxondaryo viloyati	0,4	0,2	0,2	9,3	3,7	5,6
Termiz sh	0,3	0,1	0,1	0,7	0,4	0,4
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	-	-	-	0,6	0,3	0,3
Angor	-	-	-	0,8	0,3	0,5
Bandixon	-	-	-	0,4	0,1	0,3
Boysun	-	-	-	0,3	0,1	0,2
Muzrabot	-	-	-	0,2	0,03	0,2
Denov	-	-	-	1,8	0,8	1,0
Jarqo'rg'on	0,1	0,02	0,1	0,7	0,2	0,5
Qumqo'rg'on	-	-	-	0,5	0,1	0,4
Qiziriq	0,04	0,03	0,02	0,2	0,04	0,2
Sariosiyo	-	-	-	0,7	0,3	0,4
Termiz	-	-	-	0,08	0,02	0,1
Uzun	-	-	-	0,8	0,4	0,4
Sherobod	-	-	-	0,6	0,3	0,3
Sho'rchi	-	-	-	0,9	0,4	0,5

¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

Akademik litseylar bitiruvchilarining yuqori qismi Termiz shahrida (**0,3 ming nafar**) qayd etilgan. Texnikumlar bitiruvchilarining eng yuqori soni esa Denov (**1,8 ming nafar**), Sho'rchi (**0,9 ming nafar**), Angor va Uzun (har bir tumanda **0,8 ming nafardan**) tumanlarida kuzatilgan. Akademik litseylar bitiruvchilarining past ko'rsatkichlari Qiziriq tumanida (**0,04 ming nafar**) qayd etilgan. Texnikumlar bitiruvchilarining eng past ko'rsatkichlari esa Termiz (**0,08 ming nafar**), Muzrabot va Qiziriq (har bir tumanda **0,2 ming nafardan**) hamda Boysun tumanlarida (**0,3 ming nafar**) kuzatilgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)


V. O'rtta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)

2025/2026- o'quv yili boshiga Surxondaryo viloyatining o'rtta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) umumiy soni **2 195 nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **287 nafarga**, ya'ni **15,8 % ga** oshgan.


Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni

(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)

Akademik litseylar



Texnikumlar 1)



¹⁾ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 16- oktabrdagi PF-158-son Farmoniga muvofiq, 2025- yil 1- yanvardan professional ta'lim tashkilotlarining turlari maqbullashtirilgan. Shu munosabat bilan 2025/2026- o'quv yili uchun texnikumlar bo'yicha ko'rsatkichlarni tarkibiy o'zgarishlarni hisobga olgan holda ko'rib chiqish lozim.

2025/2026- o'quv yili boshiga akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **151 nafarni** tashkil etgan va 2024/2025- o'quv yiliga nisbatan **34 nafarga**, ya'ni **29,1 % ga** oshgan. Shuningdek, texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining sezilarli o'sishi kuzatilgan. Ularning soni **2 044 nafarni** tashkil etgan va **1 590 nafarga**, ya'ni **4,5 barobarga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining tumanlar (shahar) kesimida taqsimlanishi
(2025/2026- o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar			Texnikumlar		
	jami	ayollar	erkaklar	jami	ayollar	erkaklar
Surxondaryo viloyati	151	77	74	2 044	912	1 132
Termiz sh	107	57	50	348	191	157
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	-	-	-	70	21	49
Angor	-	-	-	123	45	78
Bandixon	-	-	-	112	36	76
Boysun	-	-	-	95	41	54
Muzrabot	-	-	-	53	14	39
Denov	-	-	-	334	164	170
Jarqo'rg'on	38	20	18	126	38	88
Qumqo'rg'on	-	-	-	106	31	75
Qiziriq	6	-	6	46	17	29
Sariosiyo	-	-	-	147	67	80
Termiz	-	-	-	52	15	37
Uzun	-	-	-	124	83	41
Sherobod	-	-	-	184	85	99
Sho'rchi	-	-	-	124	64	60

Akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining yuqori ko'rsatkichi Termiz shahrida (**107 nafar**) qayd etilgan. Texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining eng yuqori ko'rsatkichlari esa Termiz shahri (**348 nafar**), Denov (**334 nafar**) va Sherobod (**184 nafar**) tumanlarida kuzatilgan. Akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonining past ko'rsatkichlari Qiziriq (**6 nafar**) va Jarqo'rg'on (**38 nafar**) tumanlarida qayd etilgan. Texnikumlarda esa eng past ko'rsatkichlar Qiziriq (**46 nafar**), Termiz (**52 nafar**) va Muzrabot (**53 nafar**) tumanlarida kuzatilgan.

Akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) orasida ayollarning yuqori ulushi Termiz shahrida (**53,3 %**) qayd etilgan, past ulushi esa Jarqo'rg'on tumanida (**52,6 %**) kuzatilgan. Texnikumlar bo'yicha Uzun tumani (**66,9 %**), Termiz shahrida (**54,9 %**) va Sho'rchi tumanida (**51,6 %**) ayollar ulushi erkaklar ulushidan yuqori bo'lgan. Muzrabot tumanida esa erkak o'qituvchilar ulushi (**73,6 %**) ayollar ulushidan (**26,4 %**) yuqori bo'lgan.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

Akademik litseylardagi oliy ma'lumotli pedagog xodimlar soni

VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlari jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Surxondaryo viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar **1 o'rta ta'lim shakli** "O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining hisoboti" yillik statistika hisoboti ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

O'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarining statistika hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni, shuningdek, o'rta maxsus va professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar viloyat va tumanlar (shahar) kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnika bazasi kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)

[MSKO-2011](#)

[MSKO-O 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Aholi turmush darajasi va
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Manzil: 190108, Termiz sh.,
At-Termiziy ko'chasi, 7-uy
El. manzil: info@surstat.uz
Tel.: (55) 541-80-00, ichki: 76-00

